



## SAYFIDDIN BOHARZIYNING HAYOTI VA MAQBARASINING MADANIY MEROSDAGI O'RNI

*Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla og'li*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

**E-mail:** [nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com](mailto:nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com)

**Tel:** +998 (94) 392 42 62

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada XIII asrning yirik allomasi va tasavvuf namoyandasi Sayfiddin Boharziyning hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi hamda uning nomi bilan bog'liq me'moriy yodgorlik – Boharziy maqbarasi haqida fikr yuritiladi. Maqolada maqbaraning tarixiy ahamiyati, me'moriy tuzilishi, bezaklari va o'tmishda hamda hozirgi kunda olib borilgan restavratsiya ishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yodgorlikning Movarounnahr me'morchilik an'analariidagi o'rni yoritilgan.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается жизнь, научное и духовное наследие Сайфиддина Бохарзи, великого ученого и представителя суфизма XIII века, и архитектурный памятник, связанный с его именем - Мавзолей Бохарзи. В статье анализируется историческое значение мавзолея, его архитектурная структура, украшения, реставрационные работы, проведенные в прошлом и настоящем. Также освещается место памятника в архитектурных традициях Трансоксании.*

**Abstract:** *This article discusses the life, scientific and spiritual heritage of Sayfiddin Boharzi, a great scholar and representative of Sufism of the 13th century, and the architectural monument associated with his name - the Boharzi Mausoleum. The article analyzes the historical significance of the mausoleum, its architectural structure, decorations, and restoration work carried out in the past and present. It also highlights the place of the monument in the architectural traditions of Transoxiana.*

**Kirish so'zlar:** *Qasri Orifon, Chig'atoy, Fathobod, Boxarz, Hirot, Nishopur, Makka, Madina, Najmiddin Kubro, Botuxon, Berkaxon, Amir Temur, Golshteyn, Bogoduxov.*

**Введение:** *Касри Орифон, Чагатай, Фатхабад, Бохарз, Герат, Нишанур, Мекке, Медине, Наджмиддин Кубро, Батухан, Беркахан, Амир Темур, Гольштейн, Богодухов.*

**Introduction:** *Qasri Orifon, Chigatay, Fathabad, Boharz, Khirat, Nishapur, Mecca, Medina, Najmiddin Kubro, Batukhan, Berkakhan, Amir Temur, Holstein, Bogodukhov.*

Movarounnahr o'lkasi asrlar davomida ko'plab buyuk allomalar, avliyolar, mutasavviflar, fozil kishilarni yetishtirib bergan zamin bo'lib kelgan. Xususan, XIII asrda yashab o'tgan mashhur tasavvuf peshvosi va islom olimi Sayfiddin Boharziy ana shunday ulug' zotlardan biridir. U nafaqat ilm-ma'rifat sohasida, balki axloqiy tarbiya, tasavvuf, islomiy tafakkur yo'nalishida ham chuqur iz qoldirgan siymolardandir. Sayfiddin Boharziyning hayoti va faoliyati bilan bog'liq yodgorliklardan eng mashhuri – uning maqbarasi bugungi kunda ham xalqimiz uchun muqaddas ziyoratgoh va tarixiy-madaniy meros sifatida alohida o'ringa ega.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi nafaqat o'zining me'moriy uslubi va san'atkorona bezaklari bilan, balki uning joylashgan hududi – Buxoro viloyatida joylashganligi ham tarixiy ahamiyat kasb etadi. Bu muqaddas maskan yillar davomida ko'plab ziyoratchilarni, olimlarni, sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida maqbara va uning atrofi tubdan ta'mirlanib, milliy qadriyatlarimizni asrashda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

XIII asr oxiri va XIV asrning birinchi yarmida mo'g'ul hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan ayrim tiklash va obodonlashtirish tadbirlari Buxoro shahrini avvalgi qiyofasiga keltirish, ilmiy-ma'naviy hayotni jonlantirish yo'lida muayyan ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, bu sa'y-harakatlar mo'g'ullar istilolari oqibatida yuz bergan vayronagarchilik va xarobazorlarning chuqur izlarini to'liq bartaraf eta olmadi. Ayniqsa, Buxoroning madaniy va diniy markaz sifatidagi nufuzi jiddiy ravishda pasaydi, ko'plab kutubxonalar, madrasalar va masjidlar vayron qilindi, bebaho



qo'lyozmalar yo'qoldi yoki yoqib yuborildi. Shahar aholisi keskin kamaydi, ilm-fan sohiblari tarqalib ketdi yoki qurbon bo'ldi.

Mo'g'ul hukmdorlari tomonidan ayrim muassasalarni qayta tiklash, yangi obidalar qurish, soliq yukini yengillashtirish kabi choralar ko'rilganiga qaramasdan, ularning barchasi ko'proq siyosiy barqarorlikni ta'minlash va aholining noroziligini yumshatish maqsadida amalga oshirilgan bo'lib, bu harakatlar tub iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy inqirozni bartaraf eta olmadi. Shahar tiklanayotgandek tuyulgan bo'lsa-da, uning ichki ruhi, tarixiy xotirasi va ilmiy muhitining tiklanishi ancha uzoq vaqt talab qildi.

Aynan shunday og'ir bir tarixiy sharoitda Sayfiddin Boharziy kabi olimlar va tasavvuf arboblarning faoliyati Buxoroning ma'naviy tiklanishida muhim rol o'ynadi. Ularning sabr-toqati, ruhiy tarbiya va iymon orqali xalqni birlashtirishga urinishlari bosqinlar davridagi eng muhim ijtimoiy-ma'naviy tayanchlardan biri bo'lib xizmat qildi.

XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning birinchi yarmida xo'jalik va iqtisodiy hayotda yuz bergan siljishlar, savdo-sotiqning asta-sekin tiklanishi, qolaversa, Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayot tarziga moslasha borishi bosqinchilik davrida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo, shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik ishlari qayta yo'lga qo'yila boshlandi. Bu jarayonda mahalliy diniy ulamolar, dunyoviy zodagonlar, hatto ayrim mo'g'ul amaldorlari ham qurilish ishlari uchun homiylik qilishdi. Me'morchilik san'atining muhim yo'nalishlari – ganchkorlik, g'isht terish, koshinkorlik, me'moriy xattotlik kabi sohalar qayta tiklandi. Movarounnahr va Xorazm hududlarida mahalliy ustalar ishtirokida xonaqohlar, maqbaralar, masjidlar, madrasalar, saroylar va minoralar kabi inshootlar qurila boshlandi. Shu davrda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kunlargacha yetib kelgan. Jumladan, Buxoradagi Sayfiddin Boharziy maqbarasini birinchilardan barpo etilgan me'moriy inshoot sifatida ko'rish mumkin[1].

Sayfiddin Boharziy nomi bilan mashhur bo'lgan Sayid al-Haqq vad-Din Abul-Maoniy Sayid ibn al-Mutahhar al-Boharziy (1190–1261) islom olamining yirik so'fiy allomalaridan biri sanaladi. U Buxoro yaqinidagi Fathobodda joylashgan xonaqohda qariyb 40 yil davomida rahbarlik qilgan.

Xalq orasida "shayx ul-olam" — ya'ni, "olam shayxi" degan unvonga sazovor bo'lgan bu siymoning xotirasi oradan sakkiz asr o'tsa ham, hamon yodda saqlanmoqda. Sayfiddin Boharziy 1190-yilda Xurosonning Boxarz shahrida tavallud topgan. Dastlabki ta'limni Xirot va Nishopurda olib, fiqh, hadis, tafsir va boshqa diniy-huquqiy ilmlarni chuqur o'rgangan. Ba'zi manbalarga ko'ra, u haj safarini ado etib, Makka va Madinada ham bo'lgan. Ilm olishni tamomlagach, Xorazmga keladi va u yerda Kubroviya tariqatiga kirib, mashhur so'fiy Shayx Najmiddin Kubroning yetuk shogirdlaridan biriga aylanadi.

Tasavvufning asosiy g'oyalariidan biri bo'lgan taqvoga qat'iy amal qilgan Sayfiddin Boharziy shogirdlarini ham komillikka, poklikka da'vat qilgan. So'fiylar singari u ham nafaqat ma'naviy, balki axloqiy va estetik madaniyatning, adabiyot va san'atning rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Najmiddin Kubro uni Movarounnahrda, Buxoro tomonga tasavvuf ilmini yoyish, odamlarni tarbiyalash uchun jo'natadi. U yerda Boharziy 40 yil davomida Fathobod xonaqosiga rahbarlik qiladi. Bu davrda xonaqohlar nafaqat diniy markaz, balki ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. Shayxlar zodagonlar, amaldorlar va oddiy xalq orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Sayfiddin Boharziy ham o'zining ruhiy yetukligi, to'g'riligi va donishmandligi bilan mahalliy hokimlar va mo'g'ul hukmdorlariga ta'sir ko'rsata olgan siymolardan biridir. U mo'g'ullar istilosi davrida yashab, siyosiy voqealarga faol munosabat bildirgan, xalqning ruhiy iztiroblariga hamdardlik ko'rsatgan va ularni o'z qadriyatlariga qaytishga da'vat etgan. Adolatsizliklarga nisbatan ochiq norozilik bildirgan va o'z fikrini aytishdan cho'chimagan. Shu boisdan u mo'g'ul hukmdorlari orasida ham katta e'tibor qozongan. Aynan uning da'vati natijasida ayrim mo'g'ul zodagonlari islom dinini qabul qilgan, masjid va madrasalar qurilishiga homiylik qilgan.



Sayfiddin Boharziy haqida musulmon dunyosi keng ma'lumotga ega bo'lgan. Uning shuhrati shunchalik yuksak bo'lganidan, hatto Chingizxonning nevarasi va Botuxonning ukasi Berkaxon Volga bo'ylaridan Buxoroga kelib, u orqali islomni qabul qilgan[2].

Boharziy Buxorodagi Xoniya madrasasining mudarrisi va mutavallisi bo'lib xizmat qilgan. U o'zining she'riy iste'dodi bilan ham ajralib turgan: Qur'on oyatlarini she'riy sharhlagan, ilohiy va axloqiy mavzularda asarlar yaratgan. Uning bizgacha yetib kelgan mashhur asarlari orasida "Sharh al-Asmo al-Husna" (Allohning go'zal ismlari sharhi), "Risola dar ishq" (Ilohiy ishq haqidagi risola), "Vasiyatnoma", "Voq'ai xilvat" (Xilvat voqeasi), "Ro'znoma" kabi tasavvufiy-ma'rifiy asarlar bor.

Sayfiddin Boharziy vafotidan so'ng, uning yirik so'fiy sifatidagi maqomi, xalq orasidagi obro'-e'tibori va ta'siri natijasida, u dafn etilgan xonaqoh atrofida yodgorlik sifatida maqbara barpo etildi. Bu me'moriy obida XIII – XIV asrlardagi Movarounnahr me'morchiligiga xos bo'lgan uslubda qurilgan bo'lib, yillar osha qayta ta'mirlangan va to'ldirib borilgan. U Fathobod mahallasidagi xonaqoh va qabriston hududida barpo qilingan. Ushbu hudud o'rta asrlarda Buxoroning eng nufuzli diniy-ma'naviy markazlaridan biri bo'lgan. Sayfiddin Boharziyning maqbarasi aynan shu markazda joylashgani, uning naqadar e'tiborli va obro'li shaxs bo'lganini anglatadi.

Sayfiddin Boharziy, mo'g'ullar istilosi davrida vayron qilingan ko'plab masjid va madrasalarning saqlanib qolishida muhim rol o'ynagan shaxs sifatida tarixda o'z izini qoldirgan. Uning ma'rifatparvarlik faoliyati, xalq orasidagi obro'-e'tibori va mo'g'ul hukmdorlariga nisbatan qo'rqusiz fikr ayta olgan jasorati tufayli, u vafotidan so'ng ham muqaddas zot sifatida e'tirof etilgan. 1261-yilda vafot etgan Sayfiddin Boharziy sharafiga Buxoro yaqinidagi Fatxobod qishlog'ida maqbara va xonaqoh barpo etilgan. XIII–XIV asrlarda qurilgan ushbu me'moriy inshoot «Jahon shayxi» maqomiga ega bo'lgan olimning maqbarasi sifatida qad ko'tarib, keyinchalik ulkan peshtoq bilan to'ldirilgan. Ushbu yodgorlik o'zining betakror me'moriy shakli tuzilishi bilan alohida ajralib turadi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi shakliy va me'moriy jihatdan Buxorodagi X asrga oid mashhur Somoniylar maqbarasi bilan taqqoslash imkonini beradi. Agar Somoniylar maqbarasi faqat dafn qilish joyi sifatida yaratilgan bo'lsa, Boharziy maqbarasi ko'p vazifani bajargan bo'lib, u daxmaxona, xonaqoh va ziyoratxona vazifalarini birgalikda bajaradigan inshootdir. Bu esa uning rejaviy yechimini murakkablashtiradi va me'morchilikda yangi bosqichni boshlab berganligini ko'rsatadi[3].

Maqbara ichki tuzilishida ikki gumbazli konstruksiya ishlatilgan bo'lib, bu me'moriy shakl va ichki hajmning uyg'unlashuviga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, inshoot devorlarining tashqi va ichki qismida bezaklarning mavjud emasligi, uning boshqa maqbaralardan farqini anglatadi. Shunga qaramay, binoning konstruktiv va muhandislik jihatidan nihoyatda puxta ishlangani, zamonasining yuksak me'moriy andozalari asosida barpo etilganini ko'rsatadi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasining ichki tuzilishida gumbaz ostidagi asosiy qismlar maxsus arxitektura uslubida qurilgan. Bu uslubda, kvadrat shakldagi xonaning yuqori qismi asta-sekin olti yoki sakkiz qirrali shaklga aylantirilib, uning ustiga gumbaz o'rnatish imkoniyati yaratilgan. Bunday arxitektura usuli "stalaktitli parus konstruksiyasi" deb ataladi[4]. Bu – gumbaz qurishda foydalanilgan juda murakkab va puxta ishlangan muhandislik usulidir. Ushbu yechim me'morlarning o'sha davrdagi chuqur bilimi va san'atni naqadar yaxshi o'zlashtirganini ko'rsatadi. Ular nafaqat diniy tushunchalarni, balki qurilish texnikasi va go'zallikni yaratish sirlarini ham mukammal bilganlar. Shu tariqa, Sayfiddin Boharziy maqbarasi nafaqat ziyoratgoh, balki Movarounnahr islomiy me'morchiligining taraqqiyot bosqichlaridan birini ifodalovchi muhim tarixiy-madaniy yodgorlik hisoblanadi. U o'zining shakliy, reja-gumbazli va konstruktiv murakkabligi bilan o'rta asrlar Buxoro me'morchilik maktabining yetuk namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi o'zining me'moriy qurilishi va badiiy ishlovi bilan XIII–XIV asrlar Movarounnahr me'morchilik an'alarining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu yodgorlik ikki asosiy qismlardan iborat: kichik go'rxona (XIII asr ikkinchi yarmi) va ziyoratxona (XIV asr ikkinchi yarmi). Har ikki inshoot gumbaz bilan yopilgan bo'lib, ularning usti charxi shaklida barpo etilgan. Asosiy kirish joyi chuqur ravoqli peshtoq orqali amalga oshiriladi. Peshtoqning ikki chetiga guldastalar



oʻrnatilgan. Peshtoq bilan guldastalar orasida joylashgan yassi tokchalarga tuynuklar ochilgan boʻlib, ular inshoot ichkarisiga yorugʻlik kirib turishini taʼminlaydi. Peshtoq tepasida esa ravoqli darchalar koʻzga tashlanadi. Ichkarida, yaʼni ziyoratxona va goʻrxonaning gumbaz osti qismida sakkiz va oʻn olti qirrali muqarnas uslubida bezaklar ishlangan. Ushbu muqarnaslar yaʼni mehrob, tahmon yoki ravoqlarning tepa qismini yarim gumbaz koʻrinishidagi bezak[5] shakllarda kesilgan boʻlib, ular meʼmoriy nafislik va did bilan barpo etilgan. Maqbarada Shayx Sayfiddin Boharziy, uning ikki farzandi – Jamoliddin Muhammad va Mazhariddin Mutahhar, shuningdek, nevarasi Abu Mufaxir Yahyo, evaralari – Xovand Burhoniddin va Ruhiddin Shayx Dovudlar dafn etilgan.

Bu maqbara qadimdan muqaddas joy hisoblanib, Buxoro ahli orasida alohida hurmat bilan tilga olinadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sohibqiron Amir Temur Buxoroga kelganida Shayx qabrini ziyorat qilgan. Uning farmoniga binoan maqbara atrofi obod qilinib, yangi ziyoratxona va sharqiy peshtoq barpo etilgan. Shayx qabrining ustidagi yogʻoch sagʻana (qabr ustiga qoʻyiladigan toʻsin) oʻzining oʻyma naqshlari va zarhal bezaklari bilan Amir Temur davridagi yogʻochchilik sanʼatining nodir namunasi sifatida ajralib turadi. Sagʻana yuzasida Shayxning tugʻilgan va vafot etgan sanalari, Qurʼondan oyatlar, madhiyalarga oid soʻzlar hamda turfa naqshlar mujassam etilgan. Bularning barchasi bir-biri bilan uygʻunlikda berilgan boʻlib, maqbaraning tarixiy, diniy va sanʼatshunoslik jihatdan qimmatini yanada oshadi[6].

Sayfiddin Boharziy maqbarasi oʻz tuzilishi, ichki va tashqi bezaklari orqali XIII–XIV asrlar Buxoro meʼmorchilik anʼanalarini yaqqol aks ettiradi. Gumbaz osti qismlarida qoʻllanilgan muqarnas bezaklar, peshtoq va tokchalar tuzilmasi, ravoqli darchalarning joylashuvi – barchasi puxta hisob-kitob, nafislik va did bilan amalga oshirilganini koʻrsatadi. Qurilishda meʼmoriy shakl va diniy-maʼnaviy mazmun bir-birini toʻldirib, inshootga chuqur maʼno bagʻishlaydi. Shayx va uning avlodlarining shu yerda dafn etilgani maqbarani muqaddas joy sifatida qadrli qilgan. Sohibqiron Amir Temurning bu joyni ehtirom bilan ziyorat qilgani va uni obod ettirishga buyruq bergani, oʻsha davrdagi tariqat peshvolariga boʻlgan yuksak eʼtibor ifodasidir. Ayniqsa, yogʻoch sagʻananing oʻyma naqshlari va Qurʼon oyatlari bilan bezatilgani Temuriylar davridagi sanʼatning nozik namunalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Asrlar davomida tabiiy omillar taʼsirida Sayfiddin Boharziy maqbarasining ayrim qismlarida yemirilish jarayonlari yuzaga kelgan. Vaqt oʻtishi bilan yuk koʻtaruvchi devorlarda mustahkamlikning pasayishi, ayrim joylarda esa namlik va shamol taʼsiridan qoplamalarning yemirilishi kuzatilgan. Ayniqsa, tashqi devorlar va gumbaz tagi qismlarida mustahkamlik zaiflashgan. 1976-yilda Buxoro viloyatida yuz bergan kuchli zilzila mazkur inshootga ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Eng katta zarar gumbaz qismiga yetib, unda tirqishlar paydo boʻldi va ayrim boʻlaklarida egilish belgilari sezilgan. Bu holat obidaning umumiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Shunga qaramay, Buxorodagi tajribali restavratsiya ustalari va meʼmorchilik mutaxassislari tomonidan mazkur inshootni saqlab qolish uchun zarur choralar koʻrildi. Taʼmirlash ishlari davomida binoning asl meʼmoriy qiyofasi buzilmasdan, uning tarixiy va estetik qimmatini asrashga alohida eʼtibor qaratildi. Devorlar va gumbazning yemirilgan qismlari anʼanaviy materiallardan foydalanilgan holda mustahkamlandi, ichki qismlar tozalanib, gʻisht terimi ehtiyotkorlik bilan tiklandi. Natijada, Sayfiddin Boharziy maqbarasi bugungi kunda ham muqaddas ziyoratgoh, meʼmoriy yodgorlik va ilmiy-tarixiy manba sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Sovet davrida Sayfiddin Boharziy maqbarasini saqlab qolish va restavratsiya qilish ishlari yuqori darajada tashkil etildi. Meʼmor A. Bogoduxov va muhandis Y. Golshteyn boshchiligidagi “Oʻzbekiston SSR Yodgorliklarni Tiklash va Konservatsiya Qilish Maxsus Ilmiy Instituti” restavratorlar guruhi maqbarani mustahkamlash va toʻliq restavratsiya qilish loyihasini amalga oshirdi. Ushbu keng qamrovli taʼmirlash ishlari uchun davlat tomonidan 118 ming sovet rubli miqdorida mablagʻ ajratilgan edi[7]. Natijada, maqbara oʻzining tarixiy va meʼmoriy ahamiyatini saqlagan holda, kelajak avlodlar uchun muhofaza qilindi. Bu ishlar, ayniqsa, 1976-yilgi zilzila taʼsiridan keyingi



holatni yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, restavratsiya guruhi o‘z ishini yuqori darajada bajarganligini bugungi kunda saqlanib qolgan holati ham isbotlaydi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi nafaqat tarixiy obida, balki muqaddas ziyoratgoh sifatida ham yuksak e‘tiborga loyiq. U asrlar davomida butun musulmon olami, ayniqsa Markaziy Osiyo xalqlari uchun ruhiy poklanish, axloqiy yetuklik va tariqat yo‘lining ramziga aylangan. Ayniqsa, tasavvufga mansublar orasida uning maqbarasi – ma‘naviy maktab, taqvo va haqiqat izlovchilar uchun ilhom manbai hisoblangan. Bugungi kunda Sayfiddin Boharziy maqbarasi O‘zbekiston Respublikasi hududida muqaddas qadamjo sifatida e‘tirof etilgan. Buxoro viloyatining Fatxobod qishlog‘ida joylashgan ushbu obida, mahalliy va xorijiy sayyohlar, ziyoratchilar tomonidan doimiy ravishda tashrif buyuriladigan manzilga aylangan. Maqbara atrofida ziyoratga qulay shart-sharoitlar yaratilgan: yo‘llar, ziyoratchilar uchun ibodatxonalar, suv quvurlari, yoritish tizimlari va ziyoratchilar turar joyi kabi inshootlar qurilgan yoki ta‘mirlangan. Shuningdek, diniy marosimlar, Qur‘on tilovatlari, duo va ma‘rifiy yig‘inlar bu joyda tez-tez o‘tkaziladi. Bularning barchasi maqbaraning tirik meros sifatidagi mavqeini ko‘rsatadi.

Xulosa tarzida aytadigan bo‘lsak, Sayfiddin Boharziy – O‘rta asr Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan, diniy-falsafiy tafakkur, tasavvuf, me‘morchilik va jamiyatni uyg‘otish sohasida muhim rol o‘ynagan shaxsdir. Uning faoliyati orqali biz XIII-XIV asrlarda madaniyat, ruhiy hayot va arxitektura qanday qilib bir-birini to‘ldirib borishini ko‘ramiz. U boshqargan xonaqoh, mo‘g‘ullar davridagi ma‘naviy qarshilik va axloqiy tiklanish markazi sifatida, xalq tafakkurining mustahkam poydevoriga aylandi. Bugungi kunda uning maqbarasi, tarixiy yodgorlik va ziyoratgoh sifatida, xalqimizning ma‘naviy boyligini namoyon etadi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan saqlash va restavratsiya ishlari ushbu bebaho me‘moriy obidaning kelajak avlodlarga to‘laqonli yetib borishini ta‘minlaydi. Bu esa yurtimizda tarixiy xotiraga, madaniy merosga bo‘lgan e‘tiborning yaqqol namunasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Sagdullayev A, Eshov B, Odilov A ... O‘zbekiston tarixi I kitob –Toshkent, "NIF MSH" nashriyoti, 2024. –624 b.
2. To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro, "Durdona" nashriyoti, 2020. – 320 b.
3. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 b.
4. Pirmatov R.X Fuqaro binolari va arxitekturasi –Toshkent, 2018. –260 b.
5. Zohidov P.Sh. Me'mor olami. – Toshkent., "Qomuslar"Bosh tahririyati, 1996. – 239 b.
6. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayfiddin Boharziy maqbarasi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayfiddin_Boharziy_maqbarasi)
7. [https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/mausoleum-of-saifetdin-boharziy/?utm\\_source=chatgpt.com](https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/mausoleum-of-saifetdin-boharziy/?utm_source=chatgpt.com)